



Loyiha rahbari:

f.f.n., dots. Saparniyazova Muyassar

E-mail: saparniyazovam@mail.ru

Тел: +998973438368

Loyihaning maqsadi ishlab chiqarish, savdo ob'ektlari, mahsulotlar, uning brendiga nom qo'yish jarayonini yengillashtirish, xalqimizning milliy an'analari va mentalitetiga yot bo'lgan to'qima nomlarning oldini olish, yangi nomlarning o'zbek adabiy tili me'yorlariga mos bo'lishini ta'minlash maqsadida tadbirkorlik sub'ekti bilan shug'ullanuvchi ommani neyning texnologiyasi asoslaridan xabardor qilish, ularga uslubiy ko'rsatmalar berish, savdo brendlari nomlarining zaxirasini yaratish.

Loyihaning qisqacha tavsifi. Besh yo'nalishda amalga oshirilayotgan "O'zbek tilida neyning: me'yoriy-huquqiy asoslarini yaratish" loyihasi, avvalo, o'zbek tilining davlat tili sifatidagi maqomini mustahkamlash, o'zbek tilida ishlab chiqarish, savdo ob'ektlari, mahsulotlar, ularning brendi nomlarini tartibga solish, nom yaratishning o'zbek tili me'yorlari hamda mentalitetimizga mos milliy texnologiyasini ishlab chiqish vazifasini o'z oldiga qo'ygan:

Kutilayotgan natija: loyihaning ilmiy asoslari, tamoyillari, qat'iy rejasi va mundarijasi belgilanadi, tadqiqot mavzusi bo'yicha xorij va respublikada amalga oshirilgan ishlar o'rganiladi va tahlil qilinadi; Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti qoshida «Neyning laboratoriyasi»ni tashkil etiladi; o'zbek tilida mavzuiy neymlar bazasini shakllantirish bo'yicha tashkiliy ishlar yo'lga qo'yiladi; Toshkent shahrining Shayhontohur tumanidagi ishlab chiqarish, savdo ob'ektlari, ularning brendiga berilgan nomlar to'planadi, lingvistik va statistik tahlil qilinadi; ijtimoiy tarmoqlarda "O'zbekcha nomlash" kanalini ochish va ommaviy sinov-tajribalar o'tkazish yo'lga qo'yiladi; aholi o'rtasida neyning madaniyatini shakllantirish maqsadida OAVda chiqishlar qilinadi; "O'zbek tilida nom yaratishning lingvistik asoslari" ilmiy risolasining Kirish va birinchi fasli ustida ishlanadi. "O'zbek tilining neyning lug'ati" (sohalar bo'yicha) nashr qilinadi.

Qo'llanish doirasi: Oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlari o'qituvchi va talabalari, shuningdek, marketologlar, hokimliklarning davlat tilini rivojlantirish bo'yicha muovinnlari, tadbirkorlik sub'ektlari o'z faoliyatlarida foydalanishlari mumkin.

Amalga oshirish: A-OT-2019-10 raqamli "O'zbek tilida neyningning me'yoriy-huquqiy asoslarini yaratish" amaliy loyihasi (900.000000 so'm) 2019-2022-yillarga mo'ljallangan.